



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИБ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Диларам Иноятова</b> НЕМЕЦКАЯ ДИАСПОРА УЗБЕКИСТАНА: СОХРАНЕНИЕ ЭТНИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ.....	5
<b>2. Лазизахон Алиджанова</b> ДИНЛАРАРО МУЛОҚОТ ВА БАҒРИКЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ВА ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ.....	11
<b>3. Umida Azamjonova</b> TARIXIY ME'MORIY YODGORLIKLARNI KONSERVATSIYA VA TA'MIRLASH METODLARI TANLILI (XORIJIY TAJRIBALAR MISOLIDA).....	16
<b>4. Javlonbek Begaliyev</b> O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT YO'NALISHLARIDA MUALLIFLIK HUQUQI MASALASI BILAN BOG'LIQ AYRIM MULOHAZALAR (1930-1970 YILLAR MISOLIDA).....	20
<b>5. Azizbek Muminov</b> FARG'ONA VODIYSI TABIIY OBYEKTLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA ULARNING ZAMONAVIY TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	26
<b>6. Фируза Мухитдинова</b> ИНСОННИНГ ЎЗ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ – ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯДА МУСТАҲКАМЛАНГАН АСОСИЙ ҚОИДА.....	31
<b>7. Sardorbek Rahimberdiyev</b> MEHNAT MIGRANTLARINING IJTIMOIIY HOLATI VA MADANIY IDENTIFIKATSIYASI (KOREYADAGI O'ZBEKLAR MISOLIDA).....	42
<b>8. Baxtiyar Kurbanov</b> 1941-1943-YILLARDA TEMIR YO'L TRANSPORTI ISHINING FRONT VA XALQ XO'JALIGI MANFAATLARI UCHUN QAYTA QURILISHI.....	48
<b>9. Ғайратбек Хайдаров, Мухитдин Саттаров</b> ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ.....	55
<b>10. Гуласал Шакирова</b> ПОНЯТИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ МЕДИАКОНВЕРГЕНЦИИ В ПОЛИТИЧЕСКИХ КОММУНИКАЦИЯХ.....	60
<b>11. Shuxrat Toshturov</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIYA VA BIOLOGIK RANGBARANGLIKNI SAQLASH SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI.....	71
<b>12. Пётр Чублуков</b> РОЛЬ ЗАВОЕВАТЕЛЬНЫХ ПОХОДОВ АЛЕКСАНДРА МАКЕДОНСКОГО В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ЭЛЛИНИЗМА НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ.....	79



**Javlonbek Rayimnazarovich Begaliyev,**  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
javlonbek.begaliyev@gmail.com

**O'ZBEKISTONDA SOVET DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT  
YO'NALISHLARIDA MUALLIFLIK HUQUQI MASALASI BILAN BOG'LIQ AYRIM  
MULOHAZALAR (1930-1970 YILLAR MISOLIDA)**

**For citation:** Javlonbek R. Begaliyev. SOME CONSIDERATIONS RELATED TO THE ISSUE OF COPYRIGHT IN THE FIELDS OF ART AND CULTURE IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD (1930-1970 S AS AN EXAMPLE). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 12.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18035080>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada muallif O'zbekistonda san'at va madaniyat yo'nalishlarida mualliflik huquqi himoyasi bilan bog'liq ayrim jihatlarni arxiv hujjatlari asosida tahlil qilgan va ilmiy xulosaga kelgan. Ushbu soha mualliflarga mualliflik haqlarining to'lanish tartiblar, mualliflik huquqi idorasi va uning mahalliy vakolatli vakillariga yaratib berilgan sharoidlar hamda jarayonni amalga oshirish bilan bog'liq muammoli holatlar ilmiy asosda ochib berilgan. San'at va madaniyat sohasi mualliflarini SSSR hukumati tomomidan rag'batlantirish holatlari o'rganilgan. Masalaning ushbu jihatlari mavzu doirasidagi tadqiqotlarni yanada keng ko'lamda o'rganishda qo'shimcha ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** mualliflik huquq, intellektual mulk, ilm-fan, san'at sohasida mualliflik huquqi, Mualliflik to'lovi, komissarlar, kino ssenariy, mualliflar ijodini rag'batlantirish.

---

**Жавлонбек Раимназарович Бегалиев,**  
доктор философии (PhD) в области исторических наук, доцент  
Ташкентского экономического и педагогического университета  
javlonbek.begaliyev@gmail.com

**ВОПРОСЫ, КАСАЮЩИЕСЯ АВТОРСКОГО ПРАВА В СФЕРЕ ИСКУССТВА И  
КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (1930-1970 ГГ.)**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье автор проанализировал некоторые аспекты защиты авторских прав в сфере искусства и культуры в Узбекистане провёл научное заключение на основе архивных документов. В статье раскрыты порядок выплат гонораров авторам, условия, созданные для ведомства по авторским правам и его местных представителей, а также проблемные ситуации, связанные с реализацией процесса. Изучены случаи поощрения авторов в сфере

искусства и культуры со стороны правительства СССР. Эти аспекты вопроса служат дополнительной информацией для дальнейших исследований по данной теме.

**Ключевые слова:** авторское право, интеллектуальная собственность, наука и знание, авторское право в сфере искусства, авторское выплата, комиссары, киносценарий, поощрение творчества авторов.

**Javlonbek R. Begaliyev,**

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor  
Tashkent University of Economics and Pedagogy,  
javlonbek.begaliyev@gmail.com

## **SOME CONSIDERATIONS RELATED TO THE ISSUE OF COPYRIGHT IN THE FIELDS OF ART AND CULTURE IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD (1930-1970 S AS AN EXAMPLE)**

### **ABSTRACT**

In this article, the author analyzed some aspects of copyright protection in the fields of art and culture in Uzbekistan based on archival documents and came to a scientific conclusion. The procedure for paying royalties to authors in this field, the conditions created for the copyright office and its local representatives, and problematic situations related to the implementation of the process are scientifically revealed. The cases of encouragement of authors in the field of art and culture by the USSR government are studied. These aspects of the issue serve as additional information for further research on the topic.

**Index Terms:** copyright, intellectual property, copyright in the field of science and art, copyright, commissioners, film scripts, promotion of the creativity of authors.

**1. Dolzarbli:** Jamiyatning rivojlanishi madaniyat va san'atning taraqqiyoti, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko'tarilganligi bilan o'lganligi haqida ko'plab tarixiy misollar keltirish mumkin. Aynan madaniyat va san'atning taraqqiy etishida davlatning sohaga bo'lgan e'tibori va mualliflariga yaratilgan shart-sharoitlar hamda ular yaratgan asarlarning huquqiy himoyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda ham davlatimiz rahbari boshchiligida intellektual mulk muhofazasiga bo'lgan e'tibor har qachongidan ko'ra ko'proq kuchaytirilmoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyev «Intellektual mulk masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmas ekanmiz, O'zbekiston bundan o'n yildan keyin ham raqobatdosh bo'lmaydi» deya takidlagani bejiz emas. Mamlakatimizda san'at va madaniyat sohasidagi asar muallifining huquqiy himoya qilish uzoq tarixga borib taqalib, jamiyat rivojlanib borishi bilan, yaratilgan asarlar mualliflik huquqlarini himoya qilishga bo'lgan e'tibor ham kuchayib borgan shuningdek san'at va madaniyat sohasida yaratilgan asarlar jamiyat a'zolarini dunyoqarashini ham o'zgartirib borgan.

### **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Mazkur ilmiy maqolani yozishda nazariy-metodologik, analiz, sintez, tarixiylik va xolislik, tarixiy-qiyosiy, xronologik usullardan foydalanildi. O'zbekistonda Mualliflik huquqi muhofazasi jumladan, O'zbekistonda sovet davrida san'at va madaniyat yo'nalishlarida mualliflik huquqi masalasi tarixi bilan bog'liq tadqiqot ishlarida asosan, huquqiy jihatlariga e'tibor berilgan. Respublikamizda Rahmonqulov H.R., Zokirov I.B., Nasriyev I.I., Hakimov R.T., Xudoyberdiyeva G.A., Toshev B.N va boshqalarning qator asarlar va maqolalarda o'z aksini topgan. Ammo keltirilgan mualliflarning asarlar va maqolalarda asosan, tadqiqotning mustaqillik davri o'rganilishi bilan bir qatorda, faqat huquqiy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

### **3. Tadqiqotning natijalari:**

Sovet davrida san'at va madaniyat sohasidagi mualliflik huquqi himoyasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan va asarlar yaratilgan. Туркин А. В. и др. «Сборник нормативных актов об авторском вознаграждении за издание произведений науки, литературы и искусства» kitobida Ilm-fan, adabiyot va san'at asarlarini nashr qilish, ularga qo'yiladigan talablar, ushbu

sohalardagi asarlar uchun mualliflik huquqini himoya qilish hamda mualliflik haqlarini to'lanishi va uning normalarga umumiy to'xtalib o'tgan.

Одинцова В.Ю. “Международное сотрудничество в области охраны авторских прав в кинематографии и телевидении” kitobida Kinematografiya va televideniya mualliflik huquqini himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik aloqalari haqida ma'lumot keltirib o'tilgan. San'at asarlarni matbuot orqali jamoatchilik yetkazilishida SSSR Xalq Komissarlari Kengashining harbiy va davlat sirlarini matbuotdan himoya qilish bo'limining ham o'rni muhim hisoblangan. Ushbu asarlarda asosan markazdagi holatlar yoritilgan bo'lsada, mamlakatimiz mualliflik huquqining ayrim jihatlari haqida qisqa ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1934-yil 31-yanvardagi 44-sonli “Dramatik, musiqali, dramatik, xoreografik, pantomima, kinematografik va boshqa asarlarni ommaviy tomosha qilish uchun gonorar to'lash tartibi va stavkalari to'g'risida”gi[1] qarori tasdiqlanib, qarorda musiqa va libretto mualliflari o'rtasida mualliflik haqi ular o'rtasidagi o'zaro kelishuvga taqsimlash belgilangan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarida spektakllar, yakka tartibdagi musiqiy konsertlar tomoshabinlar uchun to'lovsiz tashkil etilgan bo'lsa, lekin ijrochilarning mehnatiga haq to'langan hollarda mualliflik haqi barcha ijrochilarning ish haqining 5 foizi miqdorida to'lanishi belgilangan[2]. Uyqorida keltirib o'tilganidek, mualliflik haqlarini to'lanishi ham haqiqiy to'lov (Haqiqiy to'lov bu – tomosha uchun kassadan chipta sotishdan hamda kasbiy tashkilotlarga, muassasalarga va hokazolarga chipta tarqatishdan olingan to'liq to'lov bo'lib, bu to'lovdan tegishli davlat soliqlari va yig'implari bundan mustasno hisoblanadi.) summasidan kelib chiqib to'langan. Mualliflik huquqi himoyasida ijodiy asarlarga nisbatan mualliflik huquqida mulkchilik elementlari, eng avvalo, o'z ijodiy mehnat mahsulidan foydalanish va manfaatdor bo'lish muhim rol o'ynashiga[3] e'tibor qaratish zarur. Ayrim holatlarda dramatik, musiqiy, musiqiy-dramatik, pantomima, xoreografik va kinematografik asarlarning ommaviy namoyish etishda nomerlangan o'rindiqlar uchun chiptalar sotilmagan (sahna, klublar, dam olish uylari bo'lmagan) hududlarda, ijtimoiylashtirilgan sektorning barcha muassasalari va xususiy tashkilotlar uchun royalti to'lashi belgilangan. Bu holatga mualliflarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora sifatida qarash mumkin, ammo ayrim muassasalarni royalti to'lashga majburlashni ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'zgaralar asarlarini omma oldida ijro etganlik uchun, tashrif buyuruvchilardan to'lov undirilmagan taqdirda mualliflik gonorari to'lanmasligi, Mualliflik to'lovlari faqat БМННВ O'zbekiston bo'limi orqali to'lanishi belgilanib hamda muallifga to'g'ridan-to'g'ri mualliflik haqini to'lanmasligini nazorat qilish[4] ham O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan ushbu tashkilotga yuklatilgan. Yuqorida keltirib o'tilgan mualliflik to'lovlarini to'lash tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalarga qaramay, ko'plab teatrlar, sirklar, konsert tashkilotlari, klublar va boshqa ko'ngilochar korxonalar tomonidan sovet mualliflarining asarlarini ommaviy ravishda ijro etish uchun mualliflik to'lovlarini to'lashning belgilangan qoidalarini buzish holatlar uchra b turgan. Xususan: mualliflik huquqi idorasiga va uning vakolatli vakillariga gonorarni hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etmaganlar, bunga konsertlarda bajarilgan asarlarning aniq hisobini yuritmaslik holatlari sabab bo'lgan. Yozuvchilar, bastakorlar va rassomlarning ishini rag'batlantirish maqsadida SSSR hukumati tomonidan 1939-yil 29-dekabrda qabul qilingan “eng yaxshi fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarini mukofotlash to'g'risida”gi[5] qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mualliflik huquqini himoya qilish bu — mualliflar ijodini rag'batlantirish omillaridan biri ekanligini hisobga olib hamda ayrim ko'ngilochar korxonalarining vakolatli vakillarga ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmayotganligi natijasida БМННВ O'zbekiston bo'limi tomonidan: barcha teatr, ko'ngilochar va konsert korxonalari va tashkilotlari har bir alohida holatda matn mualliflari, musiqa ijrochilarining familiyalarini majburiy ko'rsatgan holda ijro etilgan asarlarning to'g'ridan-to'g'ri hisobini qonun hujjatlarida belgilangan shaklga muvofiq yuritishi belgilangan.

Sirk, teatrlar, konsert-estrada va boshqa ko'ngilochar korxonalar direktorlari (yoki ularning o'rinbosarlari) ko'rsatilgan ma'lumotlarning mualliflik huquqi idorasiga o'z vaqtida taqdim

etmagan taqdirda javobgar tortilgan[6]. Shuningdek, barcha plakat va dasturlarda, asar nomidan tashqari matn va musiqa mualliflari, tarjimonlar va boshqalarni familiyasi ko'rsatilishi shartligi, gonorar to'lash bo'yicha qarzi bo'lgan teatr, konsert, sirk va boshqa ko'ngilochar tashkilotlar ikki oydan kechiktirmay ularni tugatishi belgilangan. SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Badiiy qo'mita tomonidan ijrochilar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish maqsadida konsert va estrada tashkilotlariga barcha konsert va estrada tadbirlarini o'tkazish uchun mualliflik huquqi idorasi va uning mahalliy vakolatli vakillariga bitta bepul o'rindiqlik ajratish majburiyati yuklatilgan[7]. Ammo mualliflarni ham qarzdorligi mavjud bo'lib, avans olgan mualliflar shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda asarni yarata olmaslik yoki yaratmaslik holatlari ham uchragan[8] (4-jadvalga qarang). Bu holat shartnomalar bilan bog'liq muammolar har doim ham ko'ngilochar korxonalar, kinostudiyalar tomonidan buzilmasdan, balki mualliflarda ham qarzdorlik holatlari uchrab turishini ko'rsatadi. BMHNB doimiy ravishda ittifoq tarkibidagi respublika bo'limlaridan shu jumladan, O'zbekiston bo'limidan ham choraklik hisobotlarni qabul qilib turgan. Ko'ngilochar korxonalaridan yig'im rejasini bajarilishi bo'yicha hisobotlardan biridan 3-chorak sezilarli darajada ortig'i bilan bajarilgan va bunga sabab sifatida 4-chorakda shahar aholisining ommaviy ravishda paxta yig'im-terimiga chiqib ketishi va teatrlarga tushuvchi tomoshabinlar sonining keskin kamayishi hisobga olinganligi takidlab o'tilgan. Paxta yig'im-terimi davomida ham to'lov rejasini bajarish maqsadida Toshkent shahridagi ayrim teatrlar ta'tilga chiqmasdan faoliyatini davom ettirgan[9]. Bu belgilangan to'lov rejalarini bajarilishi hamda mualliflarga mualliflik haqini o'z vaqtida to'lashga imkon bergan.

Mamlakatimiz mualliflariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Mualliflik huquqini himoya qilish idorasi doimiy ravishda mualliflar kontingenti shakllantirgan va yangi mualliflarni ro'yxatga kiritib[10] ushbu mualliflarni mualliflik huquqlarini himoya qilgan.

1944-yil 12-noyabrdan boshlab havaskor doiralar uchun yangi dramatik, musiqali-dramatik, estrada va boshqa asarlar yaratish ustida ishlayotgan sovet mualliflarini ijodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida mualliflik haqlari konsert tashkil etilgan hududlarni sharoitidan kelib chiqib belgilangan, xususan: mintaqaviy konsertlarda har bir spektakl yoki konsert uchun — 25 rubl, tuman markazlarida — 15 rubl, boshqa joylarda va qishloqlarda — 10 rubl[11] to'lanishi belgilangan. O'lis hududlarda joylashgan ko'ngilochar korxonalaridan mualliflik haqini undirish uchun yuborilgan komissarlarni nazorat qilish mualliflik huquqlarini himoya qilish idorasi uchun muammo tug'dirgan[12]. Albatta san'at sohasi vakillarining asarlaridan foydalanib tomoshalar tashkil etgan ko'ngilochar korxonalar har doim ham komissarlarga to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan, hatto sud orqali royalti yig'ish ko'ngilochar korxonalar umumiy sonini 25 foiziga to'g'ri kelgan. Komissarlarning ish haqisini hisoblayotganda, uning o'z ishi natijasidan moddiy manfaatdor bo'lishi[13] hisobga olinishi, uzoq ish kuni uchun qo'shimcha haq to'lash kabi holatlarni e'tiborga olinishi takidlangan bo'lsada, amalda ushbu to'lovlar berilmagan. Bu holat mualliflik to'lovlarni o'z vaqtida va yetarli darajada yig'ilishiga o'z salbiy tasirini ko'rsatgan.

Tomosh ko'rsatuvchi muassasalardan mualliflik haqlarining yig'ish bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramasdan, SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1946-yilda "Kino ko'rsatishni yaxshilash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan kino — teatr binolarini tiklash va yangi binolar qurish rejasini tasdiqlangan. Natijada: SSSR hududida mavjud kino-teatrlar soni o'tgan yildagiga nisbatan bir yarim marta ko'paygan va bu raqamning ma'lum qismi mamlakatimiz hududiga to'g'ri kelgan. Har bir rayon markazida va shahar tipidagi posyolkada kamida bitta doimiy kino-teatr ochilishi belgilanib, kino-teatrlarni uzluksiz ishlashini taminlash maqsadida prokatga beriladigan filmlar fondi 27 ming nusxa oshirilib, milliy respublikalardagi prokatlar yerli xalq tilida kino-kartina kopiyalari bilan taminlash[14] belgilangan. Ushbu asarlardan foydalanish aholini san'at asarlarini tomosha qilish bilan bir qatorda mualliflarni ham daromadini oshishiga xizmat qilgan.

San'at va madaniyat sohasidagi mualliflik huquqida kino ssenariylar uchun mualliflik huquqini olish va uning himoyasi alohida o'rin tutadi. Mualliflik huquqi asoslarining (1928-yil 16-maydagi) 11-moddasiga binoan, kino ssenariysiga bo'lgan mualliflik huquqi muddati bunday

ssenariy bo'yicha tayyorlangan filmning birinchi ommaviy namoyishi o'tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi[15]. Kino san'ati, san'atning o'ziga xos turi sifatida alohida o'ringa ega bo'lib, mualliflik huquqi esa kinochilar va boshqa tomondan kino korxonalarini o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ko'p jihatdan maxsus normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi[16]. Shuningdek jamiyatning ilgari surgan g'oyalari ham filmlar orqali xalq ongiga yetib borishi inobatga olinib, kino san'atiga — san'atning hech bir turi kishilar ongiga ta'sir qilishda kino san'atiga teng kelolmaydi, deb ta'rif berilgan ham bejiz emas, albatta.

Ssenariy muallifi va kinostudiya o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ssenariy shartnomasi bilan tartibga solinib, ushbu shartnoma — muallif studiyaga o'zi yozgan tayyor adabiy ssenariydan foydalanishni taklif qilganda, uning asosida kinofilm yaratish uchun hech qayerda nashr etilmagan taqdirda tuzilishi mumkin. Shuningdek, muallifning o'zi yozgan va kinofilmga foydalanish uchun nashr etilmagan adabiy ssenariyni studiyaga o'tkazishga roziligi va studiyaning undan foydalanishga roziligi asosida tuziladigan shartnoma - ssenariy shartnomasi hisoblanadi. Muallif asarni kinostudiyaga topshigandan so'ng teatr rahbariyati yoki teatr direktori yoki uning o'rinbosari tomonidan "ssenariy shartnomasi" bajarilganligini tasdiqlab, asar muallif tomonidan topshirilgan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay muallifga yuborilishi kerakligi belgilanib, agar yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda asarni rad etish yoki unga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida yozma xabarnoma asar muallifiga yuborilmagan bo'lsa, asar teatr tomonidan yakuniy qabul qilingan hisoblangan[17].

Bundan tashqari Filmga yaxshi qo'shiq katta o'rin egallab, filmning mashhurlikka erishishida alohida ahamiyatga ega ekanligi sababli, qo'shiq matnini yaratish bo'yicha ham mualliflik shartnomasi mavjud. Qo'shiq uchun musiqa bastakor tomonidan yaratiladi, ammo bastakorga musiqa yoziladigan yaxshi og'zaki matn ham zarur bo'lib, ko'pincha adabiy ssenariy muallifi qo'shiqning so'zlarini ham bergan. Lekin bu har doim ham shunday bo'lmaganligi sababli, kinostudiyalar qo'shiq so'zlarini yozish uchun mualliflar bilan shartnoma tuzgan.

Ushbu shartnomada kinostudiya muallifga: muallif matnni ma'lum bir film uchun shartnomada ko'rsatilgan tilda yozishi hamda qo'shiq uchun yoziladigan matn ssenariy mazmuniga, filmning g'oyaviy va badiiy yo'nalishiga mos kelishi kabi majburiyatlarni yuklagan. Shuningdek shartnomada she'riy matn hajmi ko'rsatilishi, she'riy matn muallifi, qo'shiq kim tomonidan — bir kishi yoki xor tomonidan ijro etilishini hamda qo'shiqning maqsadi nima ekanligini, royalti to'lovi uch muddatda amalga oshirilish belgilangan. 1) shartnomani imzolaganda studiya muallifga to'lovning 25 % miqdorida avans sifatida to'lashi; 2) studiya matnni qat'iy bajarilganligini va shartnoma shartlariga muvofiqligini tasdiqlaganidan so'ng to'lovning 50 foizini; 3) qolgan 25 foizini esa film tegishli davlat organlari tomonidan qabul qilinganidan keyin to'lashi[18] belgilangan va shu asosda to'lovlar amalga oshirilgan.

Tegishli davlat organlari tomonidan maxsus fikr talab qilinadigan ssenariyni ko'rib chiqish muddati muallifni yozma ravishda xabardor qilgan holda Studio tomonidan 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi hamda mumkin bo'lgan. O'zbekiston SSR adabiyot va nashriyot bosh boshqarmasiga asarlar dastlabki variantlari taqdim etilgan[19] bo'lib, ayrim asarlarni jamoatchilikka tanishtirishga taqiqlar ham qo'yilishi mumkin bo'lgan.

SSSR va ittifoqdosh respubliklar hukmatlarining taklifi bilan, ssenariy bo'limlari yozuvchilar, dramaturglar va yosh intiluvchan mualliflarga keng imkoniyatlar yaratish, konsultatsiyalar tashkil etishga hamda mualliflarga ko'maklashish takidlanib, SSSR Madaniyat vazirligi kinostudiyalardan kelajakdagi filmlar ssenariylarni o'z vaqtida va sifatli tayyorlashni, nuqsonli va tugallanmagan filmlarni qabul qilish va ekranga chiqarishga yo'l qo'ymaslik talabini qo'yanligini alohida takidlash mumkin.

Bundan ko'rinish turibdiki, sovet davlati o'zining maqsad va g'oyalari singdirilgan san'at asarlari keng jamoatchilikka etkazilishini talab qilgan hamda davr talabiga mos kelmaydigan asarlarni esa ekranga chiqishini taqiqlaganligi san'at sohasida ijod qilgan mualliflarning asarlari ham to'liq nazoratda ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston SSR adabiyot va nashriyot bosh boshqarmasi tomonidan Respublikaning barcha matbuot va radioeshittirishlarni dastlabki senzura bilan qamrab olish[20] vazifasidan kelib chiqib, 1972-yil 7-yanvarda Mualliflar huquqini himoya

qilish Boshqarmasining O‘zbekiston bo‘limi direktori Akmal Po‘latovga Komil Yashinning “O‘rtoqlar” pyesasini 1930–yilda yozganligi, ushbu asar o‘sha davr dramaturgiyasining ehtiyojlariga qarab yaratilganligi, shuningdek bugungi kunda uni o‘sha holicha sahnalashtirish mumkin emasligi, shu sababdan pyesani dramaturgiya va teatr san’atining hozirgi zamondagi taraqqiyotini e’tiborga olib, tubdan qayta ishlash lozimligi talab qilingan. Natijada muallif Komil Yashin “O‘rtoqlar” pyesasidagi xarakterlarni puxtalashtirib, sxematik joylarni olib tashlagan hamda badiiylikni oshirganligi natijasida: asarni 45-50% qaytadan ishlab chiqib, zamonaviy talablarga moslashtirilgan[21]ligini O‘zbekiston yozuvchilar kengashi dramaturgiya seksiyasining raisi hamda ekspert komissiyasi a’zosi tasdiqlab ma’lumot berganligi, san’at asarlarini g‘oyasi zamon talablariga moslab borilganligini ko‘rsatadi.

#### 4. Xulosalar:

- Ko‘rib o‘tilganidek, BMHHBning O‘zbekiston bo‘limi bilan hamkorlikda olib borgan faoliyati natijasida mamlakatimizda san’at va madaniyat sahasida faoliyat olib borgan mualliflarimizni huquqlarini himoya qilish borasida bir qancha muvaffaqiyatli choralar amalga oshirilgan.

- Ushbu davrlarda ko‘plab mualliflarimizni huquqlari va qonuniy manfaatlari imkoniyat darajasida himoya qilinib, ayrimlariga bo‘lim tomonidan yordam berilganligi hamda ishonchli ijodkor sifatida asarlarini ekspertizadan o‘tkazilmaganligi ham ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

- Ammo har bir davrning yaxshi tomonlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari bo‘lgani singari, bu davrda ham San’at sohasida asarlar yaratishda ham mafkuraning hukmronligi, markazdagi mualliflarga qaraganda, nisbatan mahalliy mualliflarimizga e’tibor va shart –sharoidlari binr xilda emasligi ayrim holatlarda mualliflarimizni samarali ijod qilishiga salbiy tasir ko‘rsatgan deyishimiz mumkin.

#### Iqtiboslar /Сноски/References:

1. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 1- page.
2. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 2- page
3. Nasriev I.I. Personal rights of authors of works and guarantees of their protection. – dissertation of the candidate of legal sciences. – Tashkent, 1995. – P. 28.
4. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 2- page.
5. Gordon M. V. Soviet Copyright. – Moscow: State Publishing House of Legal Literature, 1955. -P. 29.
6. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 3- page.
7. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 3- page.
8. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 3 case, 13- page.
9. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 53 case, 16- page.
10. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 12 case, 7- page.
11. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 2 case, 6- page.
12. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 3 case, 35- page.
13. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 9 case, 8- page.
14. “Red Uzbekistan” newspaper. 1946. 16-January, 13-Issue, 1- page.
15. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 10 case, 131- page.
16. Landkoff S.N. Film Copyright. (Lectures for Students). Kyiv: 1953. -P. 3.
17. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 66 case, 146- page.
18. Landkoff S.N. Film Copyright. (Lectures for Students). Kyiv: 1953. -P. 53.
19. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 9 case, 26- page.
20. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 1- inventory, 9 case, 50- page.
21. National archives of Uzbekistan R-2432 foundation, 3- inventory, 74 case, 81- page.



**Tadqiqot.uz**

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000